



**TILLARNING MORFOLOGIK (TIPOLOGIK) TASNIFI  
MORPHOLOGICAL (TYPOLOGICAL) CLASSIFICATION OF  
LANGUAGES  
МОРФОЛОГИЧЕСКАЯ (ТИПОЛОГИЧЕСКАЯ) КЛАССИФИКАЦИЯ  
ЯЗЫКОВ**

Andijon davlat pedagogika instituti  
Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi  
208- guruh talabasi **Najmiddinova Namunaxon Zaynobiddin qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali tillarning tipologik tasnifi bilan tanishamiz. Bu tasnif orqali ularning xususiyatlarini va shu xususiyatlar orqali guruhlarga ajratishni o'rganamiz.

**Abstract:** Through this article, we will learn about the typological classification of languages. Through this classification, we will learn about their characteristics and how to divide them into groups based on these characteristics.

**Аннотация:** Благодаря этой статье мы познакомимся с типологической классификацией языков. Благодаря этой классификации мы узнаем их характеристики и то, как разделить их на группы по этим характеристикам.

**Kalit so'zlar:** amorf, flektiv, sintetik, analitik, agglyutativ, fleksiya, inkorporativ, polisintetik, izorillashgan, intonatsiya.

**Keywords:** amorphous, inflectional, synthetic, analytic, agglutinative, inflection, incorporative, polysynthetic, isorylated, intonation.

**Ключевые слова:** аморфный, флективный, синтетический, аналитический, агглютинативный, флективный, инкорпоративный, полисинтетический, изорилизованный, интонация.

**KIRISH**

Tillarning gramatik, aniqrog'i, morfologik yoki tipologik tasnifi asosida ularning gramatik strukturasiidagi o'xshashliklar aniqlanadi. Tillarning tipologik tasnifini birinchi bo'lib nemis olimlari aka-uka Shlegellar taklif etgan. Keyincha u XIX asr oxirida boshqa nemis olimi V.fon Gumboldt tomonidan tuzatilgan. U asosan uch belgiga e'tibor bergan: 1) ma'noga aloqador usullarga, 2) gap tuzilishiga, 3) tovush shakliga. Gumboldt ana shu belgilariga ko'ra tillarning to'rt guruhga ajratadi: 1) izolirlashgan, 2) agglyutativ, 3) flektiv 4) inkorporativ tillar. Keyinchalik bu tasnifga A.Shleyxer, F.F.Fortunatov kabi olimlar o'zgartirishlar kiritdilar. A. Shleyxer inkorporativ tillar borligini tan olmadi. F.F.Fortunatov esa,

so'zning morfologik tasnifiga ko'ra izolirlashgan, agglyutinatív, flektiv, inkorporativ yoki polisintetik tillarni farqladi. Ularning izohi quyidagicha tavsiflanadi.

Flektiv tillarda (lotincha "flexio" – o'tish, bukulish) morfemalar fonetik sharoitiga bog'liq bo'lmagan holda o'zgarishlarga uchraydi. Bu tillarda so'zning o'zagi ichki fleksiya natijasida o'zgaradi. Masalan, ingliz tilida sit-sat-o'tirmoq, catch-cought-ushlamoq, man-men-erkak kishilar va hakazo. Flektiv tillarda morfemalarni ajratish ancha mushkulroq bo'lib, so'zlarga qo'shilgan affikslar bir yo'la bir necha ma'nolarni ifodalashi mumkin. Flektiv tillarda qaysi vositalar grammatik ma'no ifodalashda ko'proq qo'llanishiga ko'ra analitik va sintetik turlarga bo'linadi. Analitik tillar- grammatik ma'nolar(so'z munosabati) shakl yasovchi affikslar yordamida emas, balki yordamchi so'zlar, so'z tartibi va intonatsiya vositasida ifodalanadi. Ingliz, fransuz, ispan, yangi fors tillari Analitik tillar hisoblanadi. Shuningdek, hind-yevropa oilasidagi boshqa tillarda ham ularning alomatlari mavjud. Amorf tillar(yunoncha. "amorphous" – shaklsiz) – affikslar bilan so'z yasalishi va so'z o'zgarishi bo'lmagan tillar. So'zlararo grammatik aloqa bitishuv yoki yordamchi so'zlar vositasida yuzaga chiqadi. Amalda amorf tillar kamchilikni tashkil etadi, ammo barcha tillarda unga xos unsurlar uchraydi (masalan, hind-yevropa, turkiy, fin-ugor va boshqalar). Amorf tillarga eng yaqin tillar- Xitoy, Vyetnam, Eve va boshqa Amorf tillarda mustaqil so'zlar yordamchi so'z vazifasida ham keladi. Masalan, xitoy tilida ge (arava), shong (ust), so'zlari qo'shib – geshong (aravaning usti yoki arava ustida) hosil boladi. Mana shunday holatlarda amorf tillar namoyon bo'ladi.

Sintetik tillar (yunoncha. Synthetikos-qo'shiluvchi, birikuvchi) - tillarning tipologik sinfi; bunda bir so'z tarkibida bir qancha morfemalar (leksik , so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi), binobarin, leksik va grammatik ma'nolar birlashadigan, qo'shiladigan tildir. Ularda sintetizmni – so'z ichidagi grammatikani ifodalovchi usullarga ichki fleksiya, affiksatsiya, so'z takrori so'z qo'shish va urg'uni kiritish mumkin. Masalan, o'zbek tilidagi "ishchilarga" so'z shakli sintetik holatda bo'lib, unda ham leksik (ish va chi), ham grammatik (lar va ga ) ma'nolar ifodalanadi. Flektiv tillarga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar quyidagicha:

1. Bir fleksiya bir nechta ma'no anglatishi mumkin. Masalan, rus tilidagi *виж-* y so'ziga qoshiladigan *-y* fleksiyasi bir vaqtning o'zida shaxs, son, zamoni ko'rsatadi.

2. Bir fleksiya bir nechta variantga ega bo'lishi mumkin. Masalan, rus tilida otlarda ko'plik –и, –ы, –а, –я kabi qo'shimchalar yordamida yasaladi: столы, стулья, дома, книги.
3. O'zakka va negizga fleksiya qo'shilganda tovushlar almashinuvi kuzatilishi: бежат – бегу, писать – пишу.
4. O'zak va negiz, negiz va Grammatik fleksiyalar o'rtasidagi chegarani aniqlash ko'p qiyinchilik tug'dirishi ham mumkin: мыться – моюус, пить – пью.
5. Ichki fleksiyalarga boy: masalan, arab tilida:  
kitab – kitob  
kutub – kitoblar  
tiktib – u (jenskiy rod) yozyapti  
jiktib – u (mujskoy rod) yozyapti  
uktib – men yozyapman.
6. Gramatik shakllari suppletiv yo'l bilan yasaladigan so'zlar ko'p uchrashi. Masalan, rus tilida: ходить – шел, я – меня. Nemis tilida esa: sein, bin, ist, war va boshqalar misol bo'ladi.

Agglyutinativ (lotincha. agglutinare – ulamoq) tillarda so'zlarning o'zaro munosabati so'z yasash va so'z o'zgartirish affikslari orqali ifodalanadi. Afflyutinativ tillarga turkiy, fin-ugor, yapon, koreys, dravid, bantu tillari kiradi. Bu tillarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Affikslarga boy, gapda so'zlarni bir-biriga bog'lash uchun asosan ana shu qo'shimchalardan foydalaniladi.
2. Bir affiks bir gramatik ma'no ifodalaydi, shu xususiyati bilan agglyutinativ tildagi affikslar fleksiyalarda farq qiladi.
3. Affikslar asosan bir xil ko'rinishga ega bo'lib, variantlari deyarli yo'q. Masalan: o'zbek tilida ko'plik faqat -lar qo'shilishi orqali yasaladi; kelishik qo'shimchalarining deyarli hamamsi o'z ko'rinishiga ega; variantlari bor qo'shimchalar esa (masalan, -m, -im, -ng, -ing, -ka, -ga, -qa kabilar), so'zlarning fonetik tuzilishi bilan bog'liq hisoblanadi.
4. O'zak, negiz, gramatik affikslar orasidagi chegara doimo aniq, masalan: ish – chi – lar – dan, dars – lik – lar – ni.
5. So'zlarning grammatik shakllarini yasashda suppletiv hodisasi deyarli uchramaydi.
6. Ko'pchilik agglyutinativ tillarda so'z tartibi nisbatan qat'iy. Lekin bu qat'iylik analitik flektiv tillardagi sabablar bilan tushuntirilmaydi. So'z



tartibining buzulishi hamma vaqt ham soʻz funksiyasining oʻzgarishiga olib kelmaydi; qatʻiy soʻz tartibi koʻproq til anʻanasi bilan bogʻliq. Masalan, oʻzbek tilida oddiy gaplardagi soʻz tartibi quyidagicha: ega – toʻdiruvchi - kesim.

7. Soʻzlarga qoʻshiladigan affikslar oʻzakka maʼlum tartib asosida qoʻshiladi.
8. Agglyutinatív tillar affikslarning oʻzakdan oldin yoki keyin turishiga koʻra prefiksál agglyutinatív tillar va postfiksál agglyutinatív tillarga boʻlinadi. Turkiy tillar postfiksál agglyutinatív tillardir. Afrikadagi suaxili tili esa prefiksál til hisoblanadi. Masalan: anamataka soʻzida uchta prefiksdan keyin oʻzak oʻrin olgan, yaʼni a – na – m – ataka (u buni xohlaydi).

Oʻzak (ajratuvchi) tillar. Tilshunoslikda bu ikki atama ham uchraydi. Bu tillarga asosan xitoy-tibet tillari ( xitoy, tibet, tay, vyetnam va boshqalar) kiradi. Ularning asosiy xususiyatlari soʻzlari koʻproq bir boʻgʻiniligi, affikslar, fleksiyalar yoʻq yoki deyarli yoʻqligi, gapda soʻzlar orasida sintaktik bogʻlanish asosan soʻz tartibi va ohang orqali amalga oshirilishidir. Bu tillar “amorf”, yaʼni “formasiz” tillar deb ham yuritiladi.

Mujassamlashtiruvchi (polisintetik) tillar. Polisintetik (grekcha polys – koʻp, synthesis - qoʻshish) bu tillarga amerikalik hindular va Rossiyadagi chukot, koryak tillari kiradi. Bu tillar koʻp jihatdan hali oʻrganilmagan. Hozirgi kunda maʼlum boʻlgan manbalarga qaraganda, bu tillarda soʻz tushunchasi nisbiydir. Chunki bu tillardagi soʻz boshqa tillardagi ayrim tovushlarga toʻgʻri kelib, oʻzining uzil-kesil maʼnosini faqat gap tarkibidagina kashf etadi. Odatda, bu soʻz-gapda elementlar bir –biriga qoʻshilib yoziladi. Bu tillardagi gaplar boshqa tillardagi soʻzga toʻgʻri keladi.

Inkorporatsiya (lotincha incorporare – qoʻshmoq) qoʻshma feʼl yasashning bir usuli hisoblanadi. Masalan, naua yoki antek tilida ni-ki-qwa in naka – tl - “Men (hozir) goʻsht yemoqdaman) gapida ni – feʼl prefiksi, 1-shaxs birlikda, k- jonsiz narsa bilan moslashuvda qoʻllanuvchi prefix, qwa – “yemoq”, oʻzak, in – aniq artikl, naka – “goʻsht”, ozal, tl – asosiy kelishik affiksi. Bu feʼlning shakli, Yaʼni soʻz “Men goʻsht yeyman“ degan gapga teng keladi va bu oʻziga xos inkorporatsiya hodisasidir.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, tillarning morfologik (tipologik) tasnifi toʻgrisida hech bir til oʻz xususiyatlari bilan boshqa tilga mutlaq mos kelmasligini aytib oʻtishimiz oʻrinli. Demak, tipologiya mutlaq, yaʼni absolyut emas, nisbiydir. Tillar oʻzlarining koʻproq xususiyatlari bilan u yoki bu turga mansub boʻlishi mumkin. Har bir tilda



flektiv, agglyutinativ va boshqa elementlar bo'lishi tabiiy hol bilan salanadi. Tillarning u yoki bu turga kiritishda ularning qaysi xususiyatlari ko'proqligiga qarab guruhlariga ajratamiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. A.A.ABDUAZIZOV. TILSHUNOSLIK NAZARIYASIGA KIRISH. "SHARQ" NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT-2010.
2. M.T.IRSIQULOV. TILSHUNOSLIKKA KIRISH . IKKINCHI NASHRI. TOSHKENT "Yangi asr avlodi" 2009.
3. O'zMe. Birinchi jild. Toshkent-2000.